



KONTRABANDA JINOYATI BO'YICH A TERGOV HARAKATLARINI O'TKAZISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Mamatov Shuhrat Xaliquovich

E-mail: shuhrat_mamatov91@mail.ru

Phone: +998 97 914-49-91

Annotatsiya: Maqolada kontrabanda jinoyati bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazish davomida amalga oshiriladigan tergov harakatlari haqida so'z yuritiladi va tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kontrabanda jinoyati, tergovga qadar tekshiruv, tergov harakatlari.

Аннотация: В статье рассмотрены следственные действия, проводимые в ходе доследственной проверке преступления контрабанды и даны соответствующие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Контрабанда, доследственная проверка, следственные действия.

Abstract: The article examines the investigative actions carried out during the pre-investigation check of the crime of smuggling and gives relevant proposals and recommendations.

Key words: Smuggling, pre-investigation checks, investigative actions.

Kirish

Bugungi kunda dunyoning turli joylarida, qarama-qarshilik va keskinlik tobora kuchayib, terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotrafik hamda boshqa xavf-xatar va tahdidlar barchamizni xavotir va tashvishga solmasdan qo'ymaydi. Mana shunday o'ta murakkab vaziyat barchamizdan avvalo ogoh, hushyor va sezgir bo'lishni talab qilmoqda.

Shu ma'noda hozirgi davrning o'zi O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari oldiga bojxona chegarasida bojxona nazorati samaradorligini yanada oshirish, kontrabanda ashyolarini noqonuniy ravishda olib o'tilishi, birinchi navbatda, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari, psixotrop moddalar, prekursorlar, qurol-yarog', o'qdorilar, portlovchi moddalar, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarning olib o'tilishini oldini olish kabi o'ta mas'uliyatli vazifani ko'ndalang qilib qo'ymoqda.



Shuningdek, Jahon bojxona tashkiloti hamda Jahon savdo tashkiloti doirasida qabul qilingan “Jahonda savdoni yengillashtirish va xavfsizlikning hadli standartlari”ning eng asosiy talablaridan biri kontrabanda ashyolarining noqonuniy harakatini aniqlash, oldini olish va chek qo‘yish vazifasini bajarish chog‘ida bojxona organlaridan xalqaro savdo, yuk va yo‘lovchi tashish jarayonlariga minimal darajada aralashish orqali huquqni muhofaza qilish faoliyatini samarali ta’minalash talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Bugungi kunda keng tarqalgan va O‘zbekistonning nafaqat iqtisodiy, balki jamoat xavfsizligiga ham tahdid qilayotgan jinoyatlardan biri kontrabanda jinoyatidir. Kontrabanda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning markaziy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Kontrabanda jinoyatini fosh etish, jinoyatchilarni topish va ularga munosib jazolar berilishini taminlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organi hodimlari muayyan ko‘nikma va malakalarini muntazam oshirib bormoqdalar.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloq qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotgan ushbu kunlarda, bojxona organlari ham mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash, davlat budgetini to‘ldirish, ichki iste’mol bozorini himoya qilish, tovar-moddiy boyliklarning bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tilishi va kontrabandaga qarshi kurashish borasida o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Har qanday jamiyat o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini tanlar ekan, oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Zero, bu vazifalar jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ma’rifiy, ta’lim-tarbiya va mafkuraviy jarayonlarning uзвиy birligi asosida amalga oshadi. Inson hech qachon tashqi dunyodan, o‘zini qurshab olgan olamdagi o‘zgarishlar, ro‘y berayotgan hodisalar, voqeа jarayonlardan ajralib qolgan, ularni his etmagan xolda ularning ta’sirisiz yashay olmaydi. Xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar faoliyatida sodir bo‘lgan turli mazmundagi hodisa va jarayonlar, ayniqsa g‘oyaviy hamda mafkuraviy omillar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta’sir etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonunida bojxona organlariga yuklatilgan boshqa vazifalar qatorida, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish bojxona organlari faoliyatining eng muhim funksiya hamda yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kontrabanda – lotincha “contra” – “qarshi”, “bando” – “hukumat farmoni” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “Hukumat farmoniga qarshi”, degan ma’noni anglatadi.



Qonun chiqaruvchi quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishni kontrabanda jinoyati sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasida kontrabanda jinoyati uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, kontrabanda deganda bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalarga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurol yoki o'q-dorilarni, shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar yoki diniy ekstremizim, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazish[1] tushuniladi.

Ilmiy adabiyotlarda, kontrabanda tushunchasiga berilgan turlicha ta'riflar uchraydi. Xususan, kontrabandaga qarshi kurash muammolarining taniqli tadqiqotchisi prof. Yu.I.Suchkovning fikricha, erkin muomalada bo'lgan tovarlar va boshqa predmetlarni bojxona chegarasidan g'ayriqonuniy olib o'tishnigina kontrabanda deb hisoblash o'rini ekanligiga to'xtab o'tgan [2].

Shuningdek, S.A.Sirma ham u iqtisodiy kontrabanda, odamlar kontrabandasini, muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan predmetlarni g'ayriqonuniy olib o'tishni ajratish lozim deb hisoblaydi [3].

A.I.Chuchaev va S.Yu.Ivanova bojxona jinoyatlarini alohida guruhga ajratish bilan bir qatorda, ularning turdosh ob'yekti bir ekanligiga asoslangan holda, bojxona jinoyati tushunchasiga ta'rif beradilar. Ularning fikricha, kontrabanda bojxona jinoyati sifatida "bojxonaning tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan belgilangan qoidalarga muvofiq o'tkazishni ta'minlash borasidagi faoliyat"ga tajovuz qiladi [4].

Tahlil va muhokamalar

Bojxona organi xodimlari ushbu jinoyatga qarshi kurashishda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida faoliyat olib boradilar.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sodn Qarori, 2017-yil 6-sentabrdagi "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-442-sonli, 2012 yil 25 dekabrdagi "Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari, Davlat bojxona qo'mitasining 2022-yil 29-avgustdagagi "O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida jinoyatga oid



arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qayd etish, ularni xodimlar o'rtasida taqsimlash hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 203-sonli buyrug'i va boshqa qonun hujjatlari qabul qilinib amaliyotda keng foydalanilib kelinmoqda.

Xususan, "Taraqqiyot strategiyasi"ning ikkinchi ustuvor yo'nalishi mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-aprelda "Bojxona ma'muriyatçiliginin yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122-sonli Farmonida belgilangan vazifalarni bajarishda bojxona xodimlari kontrabanda ashyolarini bojxona chegarasidan olib o'tilishiga qarshi kurashish orqali o'zlarining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Bojxona qo'mitasi boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda davlatning iqtisodiy xavfsizligiga putur yetkazishga qaratilgan kriminal guruhlarni aniqlash va ularni jinoiy harakatlarini oldini olish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Bojxona xizmati xodimlari tomonidan ko'p miqdorda giyohvandlik vositalar, kuchli ta'sir qiluvchi, psixotrop moddalarning tabletkalari va ampulalari, o'qotar qurollari va o'q-dorilar, diniy aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallar ushlanib, sodir etilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldi olinmoqda.

Xususan, 2023-yil 11 oy davomida Bojxona organlari tomonidan qo'zg'atilgan 904 ta (889 ta) jinoyat ishlaringin 220 tasi (216 ta) Jinoyat kodeksining 182-moddasi bilan, 220 tasi (211 ta) 246-moddasi bilan, 464 tasi (462 ta) boshqa moddalar bilan bog'liq. Qo'zg'atilgan jinoyat ishlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga ortgan[5].

Bojxona organlari JPKning 39¹-moddasiga muvofiq, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik bilan bog'liq jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiradi. Bojxona organlari zimmasiga zarur choralar ko'rish vazifikasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, JPK qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko'rish vazifikasi yuklatiladi. JPKning 329-moddasi 2-qismiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruv davomida shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish tayinlash tergov harakatlarini o'tkazishga ruhsat berilgan, boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilingan[6].



Kontrabanda holati bo'yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlarini olib borishda ashylar, hujjatlar va izlarni o'z vaqtida aniqlash, olib qo'yish va qayd etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu narsaga esa, ko'zdan kechirish orqali erishiladi. Ko'zdan kechirish shuningdek, sodir etilgan jinoyat bo'yicha versiyalar (taxminlar) ishlab chiqish, uning sodir etilish mexanizmi, ishtirokchilari, jinoyatchining shaxsi haqida boshlang'ich ma'lumot olish hamda uning qidiruvini tashkil etish va boshqa tezkor qidiruv chora-tadbirlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Kontrabanda ashylarini bojaxona chegarasidan noqonuniy olib o'tishning barcha holatlarida tegishli ekspertizalar tayinlanadi.

Ekspertiza o'tkazish orqali, aynan qanday kontrabanda ashylarini noqonuniy olib o'tishga urinilgani, ularning miqdoriy va sifat xususiyatlari aniqlanadi. Kontrabanda jinoyatiga oid ishlar bo'yicha kimyoviy, kriminalistik, daktiloskopik, ballistik, trasologik, xatshunoslik, materiallar, moddalar va boshqa ekspertizalar o'tkaziladi.

Kontrabanda holatini aniqlagan bojaxona xodimining dastlabki xatti-harakatlari huquqbuzarni qo'lga olish, kontrabanda ashylarini olib qo'yish va aniqlangan holatni rasmiylashtirishga qaratilishi lozim.

Bunda ashayoviy dalil sifatida olingen narsa va hujjatlarni, aniqlangan xufiyona joylarni, shaxsiy ko'rikdan (guvohlantirishdan) o'tkazilayotgan shaxsning his-tuyg'ularini, u tomondan qilinishi mumkin bo'lgan haqoratlar, do'q-po'pisalar, jismoniy ta'sir choralar, pora berishga harakat qilinishi, kontrabandani boshqa usulda amalga oshirishga urinishlarni qayd etish maqsadida texnikaviy usullar (foto-video tasvirga tushirish, ovoz yozish va h. k.) qo'llanilishi mumkin. Bunday hollarda texnikaviy usullarning qo'llanilishi haqiqatni aniqlashga va bojaxona xodimlarini bo'xtonlardan himoya qilishga yordam beradi.

Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar, ushlab turish tartibi JPKning 224-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, ushlanayotgan shaxsda quroq borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutilish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ushlayotgan vakolatli shaxs uni shaxsiy tintuv qilishga va tintuv natijasida topilgan narsalarni olib qo'yishga haqlidir. Shaxsiy tintuv yoki olib qo'yish o'tkazish to'g'risidagi bayonnomha, ushlangan shaxs bojaxona, ichki ishlar yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoraga keltirilganidan so'ng, xolislar ishtirokida tuzilishi mumkin.

Shaxsni ushlab turish muddati 48 soatni tashkil etadi, biroq JPKning 225-moddasiga asosan ushlangan shaxs ushlab keltirilgan paytdan boshlab yigirma to'rt



soatdan kechiktirilmay so‘roq qilinishi lozimligi belgilangan. Tergovga qadar tekshiruv davomida so‘roq tergov harakatini o‘tkazish taqiqlangan.

Aslida, tergovga qadar tekshiruv bosqichi – kichik tergov hisoblanadi, ya’ni tergovga qadar tekshiruv harakatlari natijasida to‘plangan dalillar kelgusida jinoyat ishi yuzasidan ayblovni e’lon qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, tergovga qadar tekshiruv harakatlariga jalb etilgan shaxs protsessual maqomga ega hisoblanmaydi. Chunki qonunchilik nuqtai nazaridan olganda tekshiruv qaysidir bir shaxsga nisbatan emas, balki jinoyatga oid xabar holati yuzasidan olib boriladi. Ya’ni, jinoyat hodisasi va uning belgilari mavjudligi tekshiriladi. Biroq, bu mansabdor shaxs aybdorni aniqlashga intilmaydi degani emas. Balki, o‘tkaziladigan barcha tergovga qadar tekshiruv harakatlari aybdorni aniqlashga, shuningdek, jinoyat sodir etilganligini tasdiqlovchi dalillar bazasini mustahkamlashga qaratadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan gumon ostiga olingan shaxs gumon rasman e’lon qilinmasdan turib, tergovga qadar tekshiruv harakatlariga chaqirilgan va hali o‘ziga nisbatan gumon yoki ayblov e’lon qilinmagan holatda bo‘ladi (*guvoh jinoiy ishga jalb etiladi, shu sababli bu shaxsning huquqiy maqomini guvohniki bilan adashtirish kerak emas*).

Sud-tergov amaliyoti tergovga qadar tekshiruv harakatlarida keng doiradagi shaxslar, xususan, arizachi, jabrlanuvchi, jinoyatga oid xabar o‘ziga nisbatan tekshirilayotgan shaxs, aybi mavjud bo‘lgan shaxs, mutaxassis, jabrlanuvchining vakili, tarjimon, xolis, tekshirilayotgan ish yuzasidan biror-bir holat unga ma’lum bo‘lgan shaxs va boshqalar ishtirok etishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ammo ularning birortasi ham jinoyat-protsessual qonun bilan tartibga solingan protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun zaruriy va yetarli maqomga ega emas. Yuqorida sanab o‘tganlarimiz esa shaxslarning jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan so‘ng ega bo‘linadigan protsessual maqomlaridir.

Xorijiy davlatlar konunchiligidagi tajribada esa, ularda jinoyat protsessining ushbu bosqichi alohida bob sifatida nazarda tutilmagan bulsada, ushbu masala milliy qonunchilikka nisbatan mukammalroq tartibga solinganligiga guvoh bo‘lamiz, yani tergovga qadar tekshiruv davomida o‘tkazilishi mumkin bulgan protsessual harakatlar doirasi kengroq hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan tergovga qadar tekshiruv davomida amalga oshirish mumkin bo‘lgan tergov harakatlaridan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, tergovga qadar tekshiruv davomida hujjalalar va predmetlarni talab qilish hamda olib quyish, tekshirish uchun namunalar olish, guvohlantirish, yuzlashtirish kabi tergov harakatlarini o‘tkazishga ham ruxsat berilgan [7]. Shuningdek, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ham tergovga qadar



tekshiruv bosqichida hujjatlar va predmetlarni talab kilib olish, tekshirish uchun namunalar olish, guvohlantirish, yuzlashtirish, murdanı eksgumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini ham o'tkazishga ruxsat etilgan [8].

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga xorijiy davlatlar qonunchiligidagi ilg'or tajriba xamda olimlar tomonidan berilgan fikrlarni inobatga olgan holda quyidagicha takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'lardi:

birinchidan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi sub'yektlarning vakolatlari, huquq va majburiyatlar doirasini aniq belgilash, shuningdek tergovga qadar tekshiruvda qatnashuvchi barcha protsess ishtirokchilarining huquqiy maqomini tartibga solish;

ikkinchidan, tergovga qadar tekshiruv surishtiruv va dastlabki tergov kabi jinoyat protsessining alohida bosqichi hisoblanishini inobatga olib, mazkur institutni JPKda alohida bob sifatida tizimlashtirilgan holda tartibga solinsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/uz/docs/111453>
2. Сучков Ю.И. Защита внешне экономический деятельности Российской Федерации по уголовному законодательству (проблемный аспекты и законодательства). Дис...докт. юрид. наук. – СПб, 1997.- С. 39.
3. Сирма С.А. Борба с организованной преступной деятельностью в сфере таможенного контроля (уголовно-правовой и криминологический аспекты): Дис....канд. юрид. наук. – М., 1999-7, 124-125 с.
4. Чучаев А.И. Таможенные преступления в новом УК РФ / Чучаев А.И., Иванова С.Ю. // Государство и право. 1998. №11. – 41-43-с.
5. 2023-yil 11 oyida bojxona organlarida surishtiruv va ma'muriy amaliyot yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/uz/docs/111460>
7. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации (18 декабря 2001г. №74-ФЗ).
8. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларус (16 июля 1999г. №295-3).